

olish imkonи tug‘iladi. Natijada, kelgusi davr uchun qilinadigan iqtisodiy prognozlarning yanada aniqlashishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari xufyona iqtisodiyotning avj olib ketishini oldini oladi.

Foydalanuvchilarning ijobjiy fikri, xarajatlarning kamayishi, pul muomalasining tezlashishi moliyaviy texnologiyalarning kelgusida yanada rivojlanishiga turtki bo‘lib xizmat qilmoqda. Raqobat muhiti ta’milalar, foydalanuvchilar ishonchi ortar ekan, fintech kompaniyalar yanada qulay, yanada past narxdagi ko‘plab moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatishda davom etib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Филиппов, Д. И. (2018). *О влиянии финансовых технологий на развитие финансового рынка. Российское предпринимательство*, 19(5), 1437-1464.

<https://finacademy.net/materials/article/fintech>

Khahharovna, T. G., & Jumaboevich, M. T. (2022). *Fintech Development in the Republic of Uzbekistan. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 2(1), 71-83.

Перцева, С. Ю. (2017). *Финтех: механизм функционирования. Инновации в менеджменте*, (2), 50-53.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*N.Ashirov, bo‘lim boshlig‘i
“Ipoteka bank” AJ Yunusobod filiali*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar yurtimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish va jahon hamjamiyatda munosib o‘rin egallashida muhim ahamiyat kasb etmoqdaXususan, bugungi kunda bank tizimida olib borilayotgan aniq maqsadli islohotlar bank tizimining barqaror rivojlanishiga, kapitallashuv darajasi va investitsion jozibadorligini oshirishga zamin yaratmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan qator ijobjiy ishlar amalga oshirilmoqdaki, bu o‘z navbatida iqtisodiyotni jadal sur’atlarda rivojlanirishning drayveri sifatida shakllanib bormoqda. Banklarning investitsiyaviy jozibadorligi, bank xizmatlari ommabopligi va sifatini oshirish uchun bank sektorini transformatsiya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 mayda PF-5992-sonli “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinib, “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi” tasdiqlanishi, bevosita bank tizimini isloh qilishni yangi bosqichga olib chiqdi. Joriy yil 1 yanvar holatiga respublikamiz xududiddar buylab Ipoteka bankning 39 ta filiali, 122 ta bank xizmatlari markazlari, 220 ta universal klassalari mavjud bulib, ular tomonidan 48 mingdan ortik faol xujalik yurituvchi subyektlarga va 1,7 mln.dan ortik aktiv chakana mijozlarga bank xizmatlari kursatib kelinmokda. Xususan, bank tizimida bank aktivlari 2022 yil yakunlari bo‘yicha 44,2 trln. so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilga nisbatan 10,4 foizga, bank kapitali 5,9 trln. so‘mni tashkil qilib, 16,3 foizga o‘sdi. Bankning sof kredit portfeli 2023 yil 1

yanvar xolatiga 32,1 trln. so‘mga oshib, 13,8 foizga usdi. Shuningdek, bank depozitlari 2022 yil davomida 16,4 trln. so‘mni tashkil qilib, 3,8 foizga oshdi. Bankning moliyaviy natijalari buyicha utgan yilning mos davriga nisbatan 55,4 foizga kup mikdorda daromad olingan bulib, xisobot sanasida 9,9 trln.sumni tashkil kildi. Shuningdek utkan yilga nisbatan 54 foizga xarajatlar kup amalga oshirilgan bulib, xisobot sanasida xarajatlar 8,8 trln sumni tashkil kildi. Natijada ushbu ijobiy uzgarishlar bankning 2022 yil faoliyati natijalari buyicha 1 156 mlrd. sum mikdorida sof foyda olinishiga imkoniyat yaratdi. Bank faoliyatining rentabelligi va samaradorligini ifodalovchi sifat kursatkichlari yukori darajada saklanib koldi. Xususan, xisobot davrida bank aktivlari rentabelligi 2,89 foizni va bank kapitali rentabelligi 21,3 foizni tashkil kildi. Yuqorida keltirilgan ijobiy ko‘rsatkichlarning tarkibida bugungi kunda bank xizmatlari bozorida o‘zining salmoqli ulushiga ega bo‘lib borayotgan “Ipoteka bank” ATIBning mavjudligi ahamiyatga molikdirBank o‘z faoliyatida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor vazifalaridan kelib chiqib, iqtisodiyot sohalaridagi loyihalarni moliyalashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarga bank xizmatlarining butun ko‘lamini taqdim etuvchi universal bank sifatida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bank faoliyatini mustahkamlash va mijozlarga sifatlari xizmatlar ko‘rsatish maqsadida 2020 yilda bankning tashkiliy tuzilmasi takomillashtirildi hamda unga muvofiq zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda yangi tarkibiy tuzilmalar tashkil etildi.

“Ipoteka bank” tomonidan kuchli raqobat sharoitida bank moliya bozoridagi o‘z o‘rnini mustahkamlash, moliyaviy barqarorligini oshirish, mijozlarga keng qamrovli va yuqori darajadagi sifatlari bank xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holdazamonaviy bank xizmatlari taklif etilmoqda. Bank faoliyatining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari (mlrd. so‘m) Mijozlarning bank xizmatlari bo‘yicha ma’lumotlar olishlari uchun “Call-markaz” xizmati yo‘lga qo‘yildi va mijozlarni dastlabki qabul qilish jarayonida ma’muriyat xodimlaridan ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari to‘g‘risida ma’lumotlarni olish imkoniyatlari yaratildi. Shuningdek, aholiga xizmat ko‘rsatish ko‘لامi va sifatini oshirish, vaqtini tejash maqsadida yagona darcha tamoyili asosida universal-chakana xizmatlar tarmog‘i, jumladan xalqaro pul o‘tkazmalari, valyuta ayrboshlash shahobchasi, chakana va iste’mol kreditlari, milliy va xalqaro plastik kartalar ochish, omonatlarni jalb qilish, kommunal to‘lovlarini o‘tkazish hamda boshqa xizmat turlari joriy qilindi.

Bugungi kunda mijozlarga internet, mobil aloqa va boshqa axborot texnologiyalarga asoslangan ham zamonaviy, ham qulay bo‘lgan masofaviy xizmat turlari taklif qilinmoqda.Xususan, “Internet banking”, “SMS xabarnoma”, “Mobil banking”, “Onlayn depozit”, “Onlayn-mikroqarz”, “Onlayn-konverciya”, “Onlayn-xalqaro pul o‘tkazmasi”, “Onlayn-hisobvaraq ochish”, “Onlayn plastik karta ochish”, “Xalqaro pul o‘tkazmalarini mobil ilova orqali qabul qilish”, “QR-kod” orqali to‘lovlarini amalga oshirish kabi xizmatlar shularjumlasidandir. Ushbu xizmat turlarining qulayligi, tezkorligi va masofadan turib foydalanish imkoniyatining mavjudligi mijozlar orasida tezda ommalashib bormoqda. Mamlakatimizda valyuta

siyosatini yanada liberallashtirish borasida keng ko‘lamlı tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Prezidentimizning 2017 yil 2 sentabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatuvchi valyuta ayirboshlash shohobchalari, konversion operatsiyalar hamda yuridik shaxslar uchun xizmat ko‘rsatib kelmoqda “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi” tasdiqlanishi kelgusida bank tizimi, xususan “Ipoteka bank” faoliyatini rivojlanishi hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini va ular bilan ishslash darajasini oshirishda muhim yo‘nalishlarni belgilab berdi. Bugungi kunda barcha sohalar kabi bank tizimida ham axborot texnologoyalarini yanada rivojlantirmasdan turib, mijozlarga yangi, ayniqsa masofaviy xizmatlar turlarini kengaytirib bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023 yil – “Inson manfatlari va sifatlari ta’lim yili” deb, e’lon qilinishi bugungi kunda banklar, shu jumladan “Ipoteka bank” AJ oldiga ham axborot texnologiyalari sohasida muhim ustuvor vazifalarni amalga oshirish, jumladan raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash, zamonaviy dasturiy ta’mintarlarni va axborot texnologiyalardan foydalangan holda yangi xizmat turlarini joriy qilish vazifalari qo‘yildi hamda mazkur yo‘nalishda bank o‘z oldiga tegishli ustuvor vazifalar belgilab, ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Bank tomonidan masofaviy xizmatlarni takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida xizmat ko‘rsatilayotgan qariyb, barcha mijozlar masofaviy xizmatlarga ulangan va ular bu xizmatlardan keng foydalaniib kelmoqda. O‘z navbatida, bugungi kunda respublikamizda axborot-texnologiyalari va dasturiy ta’mint sohasidagi yetakchi kompaniyalaridan biri bilan hamkorlik o‘rnatilgan. Bank tomonidan o‘z faoliyati davomida yetakchi kompaniya bilan hamkorlikda bankning axborot-texnologiyalari tizimi tegishli yangilash va qo‘srimchalar kiritilib takomillashtirib borilmoqda hamda bu jarayonda axborot xavfsizligini ta’minalashga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentabrdagi PQ- 3945-soni “Milliy to‘lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvining “Banklarni ro‘yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risida”gi nizomga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritish” haqidagi 2018 yil 30 iyundagi 22/5-soni Qarori

Gulyamov S. S. va boshq. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma

Olimjon Umarov: Raqamli texnologiyalar innovatsiyalar rivojiga keng yo‘l ochadi.http://xs.uz/uzkr/post/olimzhon-umarov-raqamli-tehnologiyalar-innovatsiyalar_rivozhiga-keng-jol-ochadi

http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-qonunchiligidu-raqamli-bank_tushunchasi_pajdo-boladi

https://mininnovation.uz/uz/news/raqamli-iqtisodiyot-muammolar-va_imkoniyatlar